

МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ



Илимий-методикалық журнал

2023

5/2-сан

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ғәм хабар агентлиги тәрәпинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы ғуўалық берилген.*

Нөкис

5/2-сан 2023

октябрь

Шөлкемлестіріушілер:

*Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендіріу Министрлиги,
ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы*

**Редактор:
А. Тилегенов**

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ
Ерполат АЛЛАМБЕРГЕНОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ
Тўлқин АЛЛАЁРОВ
Умида БАҲАДИРОВА
Фархад БАБАШЕВ
Гулзода БОЙМУРОВОДА
Шахло БОТИРОВА
Маманазар ДЖУМАЕВ
Асқар ДЖУМАШЕВ
Алишер ЖУМАНОВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА
Холбой ИБРАГИМОВ
Умида ИБРАГИМОВА
Меруерт ПАЗЫЛОВА
Асқарбай НИЯЗОВ
Сабит НУРЖАНОВ

Уролбой МИРСАНОВ
Нуржан МАТЧАНОВ
Шукурилло МАРДОНОВ
Бахтиёр РАХИМОВ
Фурқат РАЖАБОВ
Арзы ПАЗЫЛОВ
Барлықбай ПРЕНОВ
Феруза САПАЕВА
Қаххор ТУРСУНОВ
Нурзода ТОШЕВА
Тажибай УТЕБАЕВ
Амангелди КАМАЛОВ
Ризамат ШОДИЕВ
Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Гулрухсор ЭРГАСHEBA
Гавхар ЭШЧАНОВА

МАЗМУНЫ

ТИЛ ХАМ ЭДЕБИЯТ

Мадалиев Я.Х. Абай ижодий метросида адабий қарашлар	7
Dosanov N. O'zbek tilida izohlovchilarning leksik-semantik xususiyatlari	17
Musurmankulova M.N. Metaphorical rethinking architectural concepts	20
Berdiev B.Ch. Healthy lifestyle in the educational system in connection with belt wrestling	27
Isaqova E.D. The analysis of appearance of feelings in the english and uzbek languages	31

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Palwaniyazov M. Xaliq pedagogikasiniń ájayip tárbiya qurali	40
Radjapova Z.T., Mirzayeva G.Z. Integratsiyalashgan ta'limning pedagoglarni tarbiyalashdagi afzalliklari	45
Тўрақулов Б.Н. Таълим муҳитида интеллект ва компетентлилик тушунчалари	49
Abdujabbarova M. L., Davlatov O.G'. Talabalarining axborot xavfsizligini ta'minlashda kompetensiya va kompetentlikning ahamiyati	56
Азизова С.А. Олий таълим муассасалари талабаларини медиа компетентлигини ривожлантиришда инновацион технологияларни ўрни	61
Ismanova M. A. Talabalarda kasbiy-kreativ ko'nikmalarni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati	66
Tashpulatova D.M. Maktab ta'limida tabiiy fanlarni integratsion o'qitish metodikasi	70
Kuchkinov A.Yu. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarida raqamli ta'lim orqali ekopedagogik kompetentligini rivojlanishida eko-stem yondashuvning imkoniyatlari	74
Aktamov F.S. Ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlantirish omillari	80
Quzmanova G.B. O'quvchilarning ijtimoiy kompetentligini ijtimoiy tarmoqlar vositasida rivojlantirishda maktab umumiy fanlarining o'rni	88
Tilavova S.B. Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalar orqali bo'lajak o'qituvchilarning ekologik kompetentligini steam yondashuv asosida takomillashtirish yo'llari	92
Umarova Z.A. Maktab ta'limida pedagogik konfliktlarning tarkibi va ularni bartaraf etish xususiyatlari	99
Исламова Д.Б. Тутинган ота-она ва бола билан ишлашда психологик мослашув методикалари тавсифи	106
Xanbabayev X.I. Raqamli kompetensiyani rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari	112
Mirzayev A.M. Harbiylashtirilgan ta'lim muassasalarida klaster yondashuv asosida kursantlarni belbog'li kurashga o'rgatish	118
Абдурахимова Д.А. Бўлажак офицерларда ҳарбий ватанпарварлик туйғусини ривожлантиришнинг миллий- маънавий ва ахлоқий асослари	125
Azizova S.A. Kredit tizimi asosida fanlararo integratsiyani rivojlantirish	131
Эшбеков С.Ж. Ёшларни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялаш жараёнларини такомиллаштиришнинг самарали шакл, метод ва воситалари	134
Эшбеков С.Ж. Ёшларни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялаш тизимини такомиллаштиришнинг ижтимоий-психологик хусусиятлари	142
Bozorov Z. Yu. Ta'lim sifatini oshirish bugungi kunning dolzarb masalasidir	146
Xujaniyozova O.R. Muayyan yoshdagi maktab o'quvchilari bilan samarali ishlashda maktab psixologiyasi faoliyatining ahamiyati	150
Xolmatova S. K. Mustaqil ta'limni tashkil etishda interfaol ta'lim texnologiyalardan foydalanish	157
Xolmatova S.K. Talabalarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda mustaqil ishlarning ahamiyati	163
Махкамов У.И., Тешақулова Б.Ш. Бўлажак ўқитувчиларда педагогик маҳорат маданиятини ривожлантириш	167



Latipov R. I. Jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi talabalarida kasbiy madaniyatni shakllantirish mazmuni va shakllari	543
Latipov R. I. Mustaqil ta'lim ishlarini tashkil etish orqali jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi talabalarini kasbiy madaniyatini shakllashtirish	548
Djoldasov R.F. Jismoniy tarbiya darslari va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni estetik tarbiyalash	555
Nizambayev M. A. Badminton darslarida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda talabalarni jismoniy sifatlarini rivojlantirish	561
Nizambayev M.A. Sog'lomlashtiruvchi va eng jozibali sport turi badminton	565
Maxmudov B.A. Jismoniy madaniyat mutaxassislarini tayyorlash mexanizmi mazmunini modernizatsiyalashning tasnifiy xususiyatlari	569
Haydarov B.T. Kichik yoshdagi bolalar jismoniy faolligini noan'anaviy vositalar asosida tarbiyalashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish	574
Xolboyeva G.X. Jismoniy madaniyat mutaxassislarini tayyorlashda kasbiy, gumanitar, mintaqaviy-milliy konsepsiyaviy potensialini oshirish	581
Qosimov F. J. Jismoniy madaniyat o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini takomillashtirishda innovatsion yondashuvning didaktik imkoniyatlari	589
Mexmonov R.N., Mamadova F.M. Bo'lajak jismoniy madaniyat mutaxassislarining pedagogik madaniyati va kompetensiyasini o'stiruvchi jismoniy mashqlarni tasniflash	596
Ярашев К.Д. Жисмоний тарбия ва спорт ихтисослигидаги талабаларда бошқарувчилик тафаккурини шакллантириш, уларнинг бошқарув компетентлигини ошириш омили сифатида	603
Bo'riyeva G. I. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari	611
Усмонов Э.М. Профессионал спортчилар психологик тайёргарлигининг юқори спорт натижаларига таъсири	616
Миршарапов А. Г. Спортивные игры как средство формирования основных физических качеств у курсантов академии МВД Республики Узбекистан	624
Мирзаев А.М. Влияние кластерного метода на будущее развитие военного образования	628
Beginmkulov O. J. Physical qualities of national wrestling	634



JISMONIY MADANIYAT MUTAXASSISLARINI TAYYORLASH MEXANIZMI MAZMUNINI MODERNIZATSIYALASHNING TASNIFIY XUSUSIYATLARI

Maxmudov B.A.

*Chrchiq davlat pedagogika universiteti, Bolalar sporti kafedrası
PhD., dotsenti v.b.*

Tayanch soʻzlar: taʼlim, tarbiya, modernizatsiya, mutaxassis, mazmun, mohiyat, tasnif, mexanizm, jismoniy madaniyat, jarayon.

Ключевые слова: образование, подготовка, модернизация, специалист, содержание, сущность, классификация, механизм, физическая культура, процесс.

Key words: education, training, modernization, expert, content, essence, classification, mechanism, physical culture, process.

2019–2023-yillar davrida Oʻzbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasida “Yangilangan oʻquv rejalari va dasturlar talablarini, shuningdek, yetakchi jahon sport markazlarining ilgʻor tajribasini, innovatsion rivojlanishning tegishli ustuvorliklarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan sifati va mazmuniga koʻra zamonaviy oʻquv, oʻquv-metodik va ommaviy adabiyotlarni, yangi avlod normativ hujjatlarni tayyorlash va nashr etishni tashkil etish” belgilab qoʻyilgan [1].

Jismoniy tarbiya mutaxassislarni tayyorlash zamonaviy taʼlimning asosiy yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, mazkur sohada amalga oshirilayotgan ishlar, mazmun jihatidan pedagogik faoliyatda qoʻllanilayotgan samarali yondashuvlarni ilgʻor tajribalar asosida boyitib borish, taʼlim mazmunini modernizatsiyalash vositasida jismoniy tarbiya boʻyicha milliy taʼlimning maktabgacha taʼlim tashkiloti, umumiy oʻrta taʼlim maktablari, oʻrta maxsus taʼlim tizimi singari barcha bosqichlarini takomillashtirish oʻziga xos pedagogik muhitni yuzaga keltiradi.

Jismoniy madaniyat boʻyicha pedagogik kadrlarning kasbiy tayyorgarligini yaxshilash, pedagog jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, fan yutuqlarini hisobga oʻlish, taʼlimni insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, jismoniy tarbiyani sogʻlomlashtiruvchi fan sifatida oʻquvchi shaxsiga yoʻnaltirish, uni milliyalashtirishga asoslangan mutaxassislarni kasbiy faolitga tayyorlash kun tartibida turgan eng muhim masala hisoblanadi [2].



Zamonaviy sharoitda jismoniy tarbiya o'qituvchilarining pedagogik faoliyati sifat jihatidan yangi mazmun bilan to'ldirib borilmoqda. Biroq, amaliyot shuni ko'rsatadiki, muayyan omillar sababli barcha o'qituvchilar o'zgaruvchan sharoitda pedagogik faoliyatni samarali amalga oshira olmaydi. O'quvchilar bilan munosabatlarning shakllangan stereotiplari, ba'zida o'zaro hurmat va pedagogik hamkorlikning yetishmasligi, o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish imkoniyatlarini hisobga olmaslik, jismoniy tarbiya saboqlariga o'quvchi shaxsini shakllantirish vositasi sifatida qarash istagi yo'qligi bu samarasizlikka omil bo'ladi. Ta'lim tizimida jismoniy tarbiya darslari samarasini oshirish masalasini amaliy hal etish, birinchi navbatda, tashkiliy jihatdan o'qituvchining pedagogik faoliyatga tayyorlik darajalarini ko'tarishga bog'liq. Ushbu muammoni hal qilish uchun o'qituvchining kasbiy fazilatlarini modellashtirish talab etiladi.

Modellashtirish ilmiy bilishning usuli sifatida falsafiy, psixologik, pedagogik adabiyotlar hamda jismoniy tarbiya sohasidagi ilmiy-metodik manbalarda tadqiq etilgan. Uning mohiyati o'rganilayotgan obyektning tuzilishi soddarog'i bilan almashtirilishi va asliga mos keladigan obyektning o'rganishdan iboratdir. Model nafaqat obyekt haqida yangi bilimlarni olish, balki ularni tuzatish vositasi hamdir [3].

Dastlabki sifat-tavsif modeli jismoniy tarbiya o'qituvchisining professiogrammasi, ya'ni uning asosiy vazifalari, zamonaviy maktab o'qituvchisiga qo'yiladigan talablar, nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar, integratsiyalashgan kasbiy va shaxsiy sifatlar aks ettirilgan ko'rsatkichlar bilan belgilanadi. Shuning uchun jismoniy madaniyat sohasidagi pedagog uchun, ayniqsa, jismoniy tarbiya o'qituvchisiga bakalavr ta'lim yo'nalishida olib boriladigan bloklar bo'yicha bilimlar majmuasini egallashi ularning mustaqil pedagogik faoliyatida erishishi lozim bo'lgan natijani belgilab beradi.

Bugun ta'limga oid ma'lumot va bilimlarning muttasil kengayishi, yangilanib borishi ularning tezda eskirishini ham anglatadi. Shuning uchun har bir pedagog, shu jumladan jismoniy tarbiya o'qituvchisi uzluksiz ta'lim tizimidagi yangiliklar to'g'risida yetarli ma'lumotga ega bo'lishi talab etiladi.

Jismoniy tarbiya sohasidagi innovatsiyalar ta'lim samaradorligini oshirishning eng samarali usuli va vositasidir. Shu bois rivojlangan mamlakatlar ta'limga iloji boricha ko'proq innovatsiyalarni kiritishga intiladilar. Ilgari jamiyat va ta'lim-tarbiya tizimlari faqat ayrim pedagoglar tomonidan ta'lim jarayoniga kiritilgan yangiliklardan xabardor bo'lishi mumkin edi. 20-asrning 80-yillarida Shatalov va Sh.Amonashivililar tajribasi hamma bop yangilik sifatida qabul qilingan. Bugungi kunda innovatsiyalar xususiy emas, balki uyushgan, rejalashtirilgan, ommaviy munosabatlarni talab qiladi.



Jamiyatdagi o'zgarishlar ta'lim-tarbiya va tarbiya tizimiga ham tegishli o'zgarishlar kiritishni talab qiladi. Ayni paytda ta'lim jamiyatdagi voqealar va yangiliklarni passiv kuzatuvchisi emas, balki pedagogik innovatsiyalar yangi istiqbolarga yo'naltirilishi lozim.

Ta'lim va tarbiya sohasidagi innovatsiyalarni modernizatsiya qilish va amalga oshirish jismoniy tarbiya o'qituvchilariga ham tegishli. Bugungi kunda jismoniy tarbiya o'qituvchilari ishtirokisiz tashkil etilgan har qanday tadbir samarasiz bo'lib qolishi oydinlashib bormoqda. O'qituvchi – o'rganishning asosiy omili va shuning uchun ham yangilikning muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qituvchining yangiliklarni o'zining innovatsion faoliyatiga tatbiq etish kompetensiyasiga bog'liqdir. Ushbu funktsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'qituvchi nafaqat o'z intizomi, balki psixologiya va ta'lim texnologiyalari bo'yicha ham yetarli darajadagi bilimlarga ega bo'lishi lozim hisoblanadi. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida ta'lim texnologiyasining to'g'ridan-to'g'ri tashuvchisi sifatida o'qituvchi puxta tayyorlangan bo'lishi uchun esa unga kasbiy faoliyatga oid yo'naltiruvchi ko'rsatma berilgan bo'lishi talab etiladi. Agar o'qituvchi mutaxassislik kasbiga yetarlicha tayyor bo'lmasa, kelgusi faoliyatida turli innovatsiyalarni joriy etishda muvaffaqiyatsizlikka uchrashi mumkin. Uning faoliyatida o'zining irodasi, bilimlari va sohaga oid innovatsiyon yangiliklarni qo'llash qobiliyati hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu sifatlarga ega bo'lishi uchun esa o'qituvchi yaxshi tayyorgarlik ko'rgan bo'lishi lozim. Bunday tayyorgarlik, shubhasiz, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining o'qitiladigan fanning Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv rejasi hamda fan dasturi orqali amalga oshiriladi.

Jismoniy madaniyat mutaxassislarini kasbiy faoliyatdagi o'zgarishlar ta'lim muassasasi tomonidan unga qo'yiladigan zamonaviy talablarni to'g'ri qabul qilishi, sodir bo'layotgan yangiliklarga o'z munosabatini bildirishdan boshlanadi. Boshqa tomondan, o'qituvchining qarashlari jamiyatning ijtimoiy imkoniyatlariga mos kelmasa, unda jamiyat va o'qituvchi o'rtasida ziddiyat kelib chiqadi. Aynan shu yerda har ikki taraf o'z qadriyatlarini qayta ko'rib chiqib, qarashlarini o'zaro muvofiqlashtiradi [2].

Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, jismoniy madaniyat mutaxassislarini tayyorlashda jismoniy madaniyat ta'lim sohasini o'qitish jarayonida ularning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun, avvalo o'qitish mexanizmini qayta ko'rib chiqish va uning mazmunini takomillashtirish talab etiladi.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorligini ta'minlash ta'lim ilg'or mahalliy va xorijiy tajribalar asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishning o'quv-metodik ta'minotini zamonaviy talablarga muvofiqlashtirish zarur. Demak, o'quv-metodik ta'minot jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishida tahsil oluvchi talabalarni kelgusi kasbiy faoliyatga



tayyorlashning muhim omillaridan biridir. Shuningdek, o'quv-metodik ta'minot ta'lim muassasasidagi ta'lim-tarbiya jarayonini to'liq va samarali tashkil etish hamda o'tkazishga asoslangan Davlat ta'lim standarti, malaka talabi, o'quv reja va dasturlar, shunga muvofiq tayyorlangan o'quv-uslubiy majmualar, o'qituvchilar uchun mo'ljallangan zamonaviy yondashuvlar asosida o'quv materiallar (darslik, o'quv qo'llanma, uslubiy qo'llanma, metodik tavsiya, didaktik materiallar, o'quv-metodik vositalar) majmuasi tarzida taqdim etilishi lozim. Shu tariqa bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini kasbiy kopetentligini oshirishda o'quv-metodik ta'minotining jamlanmasi kelgusida amaliyotda qo'llaniladigan ta'lim jarayonini tizimli tashkil etish uchun zaruriy pedagogik shart-sharoit yaratadi.

Ayni paytda ta'kidlash joizki, jismoniy madaniyat ta'lim tizimida qo'llaniladigan o'quv-metodik kompleksning tashkiliy-pedagogik komponentlari, mazmuni va boshqa jihatlari ta'limiy islohotlar asosida modernizatsiyalashtirib borilishi lozim, ya'ni o'quv-metodik ta'minot o'qitish jarayonida turli-tuman bo'lishi, zamon talabiga ko'ra uning komponentlari o'zgarib, yangilanib turilishi ta'lim dasturlarining o'zgaruvchanligiga moslashishi, olingan bilim ko'nikma va malakalarni amaliyotga tatbiq eta olishlariga imkon bera oladigan didaktik yondashuv ham talab qilinadi. Mazkur masala yuzasidan olib borilgan ilmiy izlanishlar mavjud o'quv-metodik ta'minotning tahlili, shuningdek, ta'lim tizimidagi islohotlarni bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari oldiga qo'yilgan talablarga asoslangan holda umumiy o'rta ta'lim maktablarining jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalari bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini o'quv jarayoniga tayyorlashning muhim sharti sifatida amalga oshirildi.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini mutaxassislik faoliyatiga tayyorlash mazmunini takomillashtirishning meyoriy asoslari ham jarayonning muhim omillaridan biridir. Jumladan, mutaxassis chiqaruvchi 60112200–Jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishining DTS, malaka talabi (klatsifikator) kabi hujjatlarda bitiruvchi mutaxassis kelgusi faoliyatini qanday va qayerlarda amalga oshirish mumkinligini belgilab beradi. Shuning uchun ham bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisiga qo'yiladigan talablarni inobatga olgan holda mutaxassislarni kelgusi kasbiy faoliyatga tayyorligini baholovchi talablar quyidagilardan iborat bo'ladi:

- jismoniy tarbiya ta'limning samaradorligini ta'minlashda o'qituvchining shaxsiy sifatleri va pedagogik mahorati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bo'lg'usi jismoniy tarbiya o'qituvchisi barcha psixologik-pedaogik vositalarni qo'llagan holda, o'quvchilarda yaxlit tarzda o'quv faoliyatini shakllantirish hamda ularning salomatligini ta'minlay olish xususiyatiga ega bo'lishi kerak;



- zamonaviy jismoniy tarbiya nazariyasida o'qituvchining mavqei o'quv-tarbiya jarayonining boshqaruvchisi sifatida tavsiflangan. Demak, jismoniy tarbiya o'qituvchisi pedagogik jarayonni to'g'ri boshqara bilishi uchun chuqur bilim va kasbiy kompetensiyaga ega bo'lishi lozim. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi ko'p jihatdan o'quvchilar uchun o'rnak hisoblanadi. Shuning uchun ham u, birinchi navbatda, o'quvchilarni o'ziga jalb eta olishi kerak;
- shaxsga yo'naltirilgan hamda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etishni nazarda tutgan holda o'qituvchining shaxsiy sifatлари, kasb mahorati hamda bilim darajasini tashxislash asoslari ishlab chiqilishi zarur. Tashxislash natijalari asosida jismoniy tarbiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash mexanizmining samaradorligini oshirish mazmuni va texnologiyalari uzluksiz takomillashtirishi lozim.

Xulosa tariqasida shuni ta'kidlash joizki, jismoniy madaniyat mutaxassislarini tayyorlash mexanizmi mazmunini modernizatsiyalashda yuqoridagi fikrlarga tayangan holda hamda zamonaviy tkndensiyalarga yondashib uning mazmunini takomillashtirilsa, kelgusida kasbiy komponentga ega raqobatbardosh jismoniy madaniyat mutaxassisini tayyorlash imkoniyati yuzaga keladi.

Adabiyotlar:

1. Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 13 февралдаги 2019-2023 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва оммавий спортни ривожлантириш концепцияси118-сон қарори.
2. Махмудов Б.А. Жисмоний маданият мутахассисларини тайёрлаш механизмини такомиллаштириш. Монография/ Чирчиқ-2023 й. 142 б.
3. Махмудов Б.А. Жисмоний маданият мутахассисларини тайёрлашнинг дидактик параметрлари ва уни стратегиясини белгилаш. Молодой учёный-Казан-2021 г. 112-114 с.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqola jismoniy tarbiya mutaxassisligi bo'yicha tahsil oluvchi talabalarning o'quv-metodik ta'minotini takomillashtirishda uning mazmunini qayta ko'rib chiqish orqali ta'lim tizimini yangilash borasidagi fikrlar bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье описаны идеи обновления системы образования путем пересмотра ее содержания для улучшения учебно-методического обеспечения студентов, изучающих физическое воспитание.

SUMMARY

This article describes the ideas of updating the educational system by revising its content to improve the educational and methodological support of students studying physical education.